O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor ____________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil “28” 08 ____________

Ro‘yxatga olindi: № ____________
2023-yil ____________

# “O‘ZBEK TERMINOLOGIYASI VA LEKSIKOGRAFIYASI”

## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230600 – Noshirlik ishi |

**Toshkent-2023**

CamScanner

| Fan/modul kodi O'TL1105 | | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1 | O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi | 5 | 4 | 60 | | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | | 90 | 150 |

2. **I. Fanning mazmuni**

"Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonda "O'zbek tilining asl tabiati v xususiyatlarini to'la aks ettiradigan mukammal akademik va o'qu grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklifla tayyorlash, turli mavzu va yo'nalishlar bo'yicha lug'at va qomuslar, risola v darsliklar yaratish" fikridan kelib chiqqan holda, o'quv predmetni o'qitishnin maqsadi o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi predmeti, maqsadi va vazifalari fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasi, shakllanisl va taraqqiyot bosqichlari, amaliy leksikografiya, elektron lug'atlar, kompyute leksikografiyasi, zamonaviy terminografiya kabilar yuzasidan nazariy ma'lumotla berish, faoliyatga doir ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Fanni o'qitishda terminologiya va leksikografiya bo'yicha bilimlarn o'zlashtirish va mustahkamlash, talabalarda o'zbek lug'atchiligining nazariy v amaliy masalalari yuzasidan bilim hosil qilish, maxsus lug'atning barcha tur v shakllaridan xabardor qilish, ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, maxsu ensiklopedik va lingvistik lug'atlar, lug'at maqolalari tuzilishi, o'zbel terminologiyasi va leksikografiyasining tarixiy taraqqiyoti, istiqlol yillaridag rivoji, axborot texnologiyalariga asoslangan maxsus lug'atlar haqida bilim berisl vazifalarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi" fanining nazariy asoslari (obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari).**

Leksikografiya, nazariy va amaliy leksikografiya, leksika, lug'atchilik, lug'at, obyekt, predmet.



**2-mavzu. O'zbek sohaviy leksikografiyasi muammolari. Maxsus lug'atlar tizimi. Tasniflar: maxsus va umumiy ensiklopedik va lingvistik lug'atlar**

Leksikografiya, lug'at tizimi, tasnif, ensiklopedik va lingvistik lug'at, o'quv lug'ati.

**3-mavzu. Maxsus lug'atlar strukturasi. Universal lug'at. Leksikografik parametrizatsiya**

Lug'at tarkibi, universal lug'at, parametrizatsiya, lug'at maqolasi.

**4-mavzu. Kompyuter leksikografiyasi. Kompyuter (mashina) fondlari va milliy korpuslar. Sohaviy elektron lug'atlar**

Nazariy leksikografiya, kompyuter leksikografiyasi, mashina fondlari, korpus, milliy korpus, elektron lug'at

**5-mavzu. Sohaviy ideografik va ters (inversion) lug'atlar. Terminni izohlash. Izohli lug'atlar. Terminologik lug'atlar. Tarjima lug'atlar**

Tushuncha, mavzuiy guruh, ideografik lug'at, ters (inversion) lug'at, tezaurus, izohli lug'at, terminologik lug'at, tarjima lug'at, bir tilli va ko'p tilli lug'at.

**6-mavzu. Terminologik lug'atlar. Tarjima lug'atlar**

Mualliflik korpusi, mualliflik leksikografiyasi, terminologik lug'at, tarjima lug'at, bir tilli va ko'p tilli lug'at

**7-mavzu. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari**

Qadimgi turkiy til terminologiyasi, Eski turkiy til terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi, Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi

**8-mavzu. Terminologiyaning lingvistika obyekti sifatida òrganilishi**

Sohaviy lug'at materiali tarkibiy qismlarini shakllantirish. Bosh so'z va lug'at maqolasiga material tanlash. Bosh so'z semalarini tavsiflash. Leksikografik izoh tayyorlash

**9-mavzu. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasini takomillashtirishda o'zbek shevalari imkoniyatlaridan foydalanish**

O'zbek terminologiyasining ko'hna manbalarda aks etishi, Soha terminologiyasining o'zbek tili lug'at fondidagi o'rni.

**10-mavzu. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasini takomillashtirish masalalari: tashqi manbaa**

Terminologik lug'atlar, Terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish masalasi, Sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohotlar

**11-mavzu. O'zbek terminologiyasining leksik - genetik xususiyatlari**

O'zbek terminologiyasining shakllanish manbalari, O'zbek terminologiyasi tizimida adabiy qatlamning o'rni.

**12-mavzu. O'zbek terminologiyasida lingvistik masalalar**

Termin va uning o'ziga xos xususiyatlari, Termin, so'z va nom, Terminlarning nominativ vazifasi, Termin, obrazli so'z va metafora, O'zbek terminologiyasida dubletlik

**13-mavzu. O'zbek terminologiyasining yasalishi masalalari**



CamScanner

Terminlarning struktur tuzilishi. Qo'shma terminlarning xususiyatlari. Birikma va murakkab terminlar. Terminlarning yasalish usullari. Terminlarning o'zgarishi

**14-mavzu. Turkiy tilshunoslik tarixida lug'at tuzish an'analarining shakllanishi**

Lug'at, lug'atchilik, taraqqiyot, lug'atshunoslik, an'anaviy lug'atchilik

**II. II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi*

1. Soha lug'ati materiali tarkibiy qismlarini shakllantirish. Bosh so'z va lug'at maqolasiga material tanlash. Bosh so'z semalarini tavsiflash. Leksikografik izoh tayyorlash
2. Terminlarning semantik xususiyatlari. Terminlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari
3. Maxsus lug'at mikrostrukturasi ishlab chiqish. Lug'at makrostrukturasi ustida ishlash
4. Lug'at turlari
5. Terminologik ma'lumot va illyustrativ misollar topish bo'yicha amaliy ish.
6. Terminologik lug'at uyasi tuzish
7. "Devonu lug'otit turk"dagi terminlarning mavzuviy guruhlari.
8. Terminlar o'quv lug'atlari uchun material tanlash. Boshqa lug'at bilan qiyoslash
9. "Qutadg'u bilig"da eski turkiy til terminlari tizimining aks etishi
10. Sohaviy terminlar taraqqiyoti. Terminologik leksikografiya
11. O'zbek lug'atchiligida tarjima lug'atlar takomili
12. Termin o'zlashtirish va bu jarayonning o'z qatlamga ta'siri
13. Mustaqillik davri o'zbek lug'atchiligi
14. Sohaviy ideografik va ters (inversion) lug'at uyalari ishlab chiqish
15. Korpus asosida soha lug'atini tuzish amaliyoti
16. Sohaviy lug'at ma'lumotiga avtomatik ishlov berish bo'yicha amaliy ish
17. O'quv lug'atlari tili
18. Terminlar lug'atida so'zlikni tanlash va leksikografik ishlov berish
19. Internet lug'atlari
20. Mualliflar jamoasi bilan ma'lum mavzudagi lug'atni loyihalash
21. Elektron lug'atlar
22. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolar, ularning sabablari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;



- o'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distansion) ta'lim.

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar*

1. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi fani o'rganadigan muammolar va ularning yechimi.
2. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasining shakllanish bosqichlari: o'zbek tili so'z boyligida sohaviy terminlar va ularning lingvistik xususiyatlari.
3. Turkiy tilshunoslik tarixida lug'at tuzish an'analarining shakllanishi
4. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari: sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohotlar
5. Lug'at turlari
6. O'zbek terminologiyasini takomillashtirishda o'zbek shevalari imkoniyatlaridan foydalanish
7. Qomusiy lug'atlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari
8. O'zbek terminologiyasini takomillashtirishda o'zbek tilining so'z yasalish imkoniyatlaridan unumli foydalanish
9. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari: tashqi manbaa
10. O'quv lug'atlarining shakllanish tarixi
11. O'zbekcha-tarjima lug'atlar takomili
12. Mustaqillik davri o'zbek tili terminologiyasi
13. Terminologik leksikografiya
14. Terminlar yasalishi
15. Terminologiya va leksika

3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

– O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi fanining dolzarbligi, uning boshqa tilshunoslik fanlari bilan aloqasi, lug'atchilikka oid nazariy va amaliy masalalarning hal qilinishi va yoritilishi, fanning shakllanish bosqichlari, shakllanish bosqichlari, xususan, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili va mustaqillik davrida o'zbek leksikografiyasi va terminologiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi borasida muayyan bilimga ega bo'lish, ularni amaliyotga tatbiq etish holati to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

– Leksikografiya va terminologiyaning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha mustaqil bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi; Terminlar lug'ati, lug'atshunoslik, maxsus lug'at va uning turlari, ularning o'ziga xos strukturasi, belgi-xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali masalalar va vazifalarni aniqlash, zamonaviy leksikografiya doirasidagi masalalarni mustaqil o'rganish, o'zbek amaliy leksikografiyasi haqida nazariy bilimlarni o'zlashtirish, maxsus leksikografik talqin va izohlar yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishi;



CamScanner

| | |
|---|---|
| | – zamonaviy leksikografiya va terminologiya bo'yicha tayanch tushunchalar haqida tushunchaga ega bo'lish, hozirgi o'zbek adabiy tili va mustaqillik davrida o'zbek leksikografiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi borasida muayyan bilimga ega bo'lish hamda ularni amaliyotga tadbiq qilish va farqlash **malakalaruga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>"O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi" fanini o'tishda interfaol metodlar, xususan, blis-so'rov, taqdimotlarni qilish, jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, amaliy ishlarni bajarish va xulosalash va boshqa metod hamda usullardan foydalaniladi. |
| 5. | **VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi**<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824- sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 6 **kredit beriladi.**<br>Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda **kreditlar berilmaydi.**<br>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 baho.** Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.<br>**4 baho.** Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va |



| | |
|---|---|
| | ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.<br>– **3 baho.** Talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrni izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.<br>**2 baho.** Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Hojiyev A. Termin tanlash mezoni. – Toshkent, 1996.<br>2.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002.<br>3.Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик бўшлиқларни тўлдиришнинг диалектал асослари. – Т.: "BOOKMANY PRINT", 2022. – 130 б.<br>4.Normamatov S. Leksikografiya asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2021. – 120 b.<br>5.Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasiyasi, 2017.<br>6.O'zbek tilining izohli lug'ati 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasiyasi, 2006.<br>7. Normamatov S. Jadid adiblarining lug'atshunoslik faoliyati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.<br>3. Bakirov F. Yuridik terminlar lug'ati. -Toshkent, 1959<br>4. Bekjonov R., Ahmadjonov O. Fizikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'at.-Toshkent, 1984.<br>5. Bekmuhamedov X.D. Tarix terminlari izohli lug'ati. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining studentlari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent: O 'qituvchi, 1978.<br>6. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. -Toshkent, 2002. |



CamScanner

| | | |
|---|---|---|
| | 7. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания, - М.: Наука, 1977.<br>8. Дониёров Р. Узбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент: Фан, 1977.<br>9. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1. - М.: Московский лицей, 1994.<br>10. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.2017. -B.28-30.<br>Akobirov S. Termin va terminologiya. – Toshkent, 1968.<br>**Axborot manbaalari**<br>www.kutubxona.uz<br>www.ziyonet.uz<br>https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya<br>http://dic.academic.ru | |
| 7. | Fan dasturi Universitet Kengashning 2023-yil ___-avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. | |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>D.Q.Elova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, " ____________ " kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD | |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Z.Xolmanova – ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori. | |



CamScanner